

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Karimov Bobir</b> “MAHALLABAY” ISHLASH TIZIMI NEGIZIDA INSON SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQRISH KOMPETENSIYALARI.....	5
<b>2. Kulbekova Nasiba</b> INSON SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA TA‘LIM TIZIMINING O‘RNI.....	12
<b>3. Инаков Комил, Абдугафурова Чарос</b> МОЛОДЕЖЬ КАК РЕСУРС РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА.....	19
<b>4. Узакова Зарина</b> ПОТРЕБНОСТИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ (ЧС): РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА.....	27
<b>5. Dulanbayeva Oygul</b> MUALLIFLIK STRATEGIYASI ZAMONAVIY MUTOLAA DIDINI SHAKILLANTIRISH MEKANIZMI SIFATIDA.....	34
<b>6. Hojiyev Zavqiddin</b> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	40
<b>7. To‘raev Odiljon</b> AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH ORQALI IJTIMOIIY XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	50
<b>8. To‘raxo‘jaeva Ra‘no</b> DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI XODIMLARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARI.....	59
<b>9. Abdikadirova Nigora</b> INSON SALOHİYATI: NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	66
<b>10. Tadjikhojaev Botir</b> DAVLAT BOSHQARUVIDA XARIZMATIK SHAXSLAR FAOLIYATINING SOSIOLOGIK TAHLILI.....	71
<b>11. Xolmurodov G‘ulom</b> O‘ZBEKISTONDA MAHALLA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	78
<b>12. Axmedova Shaxnozaxon</b> OILA-NIKOH MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDAGI SOTSIOLOGIK NAZARIY YONDASHUVLAR.....	91


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Karimov Bobir,**

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Davlat boshqaruv akademiyasi “Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi”  
kafedrası professor v.b., sotsiologiya fanlari doktori (DSc)  
bkarimov73@umail.uz

### “MAHALLABAY” ISHLASH TIZIMI NEGIZIDA INSON SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQRISH KOMPETENSIYALARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132667>

#### ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekistonda qo‘llanilayotgan o‘ziga xos tizim – mahalla hamda “Mahallabay” ishlash tizimi, mahallaning ko‘p ming yillik tarixi, rivojlanish bosqichlari va bu tizim asosida inson salohiyatini qanday qilib ro‘yobga chiqarish, mahallani boshqarish va rivojlantirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini oshirish masalalari yoritilgan. Mahalla xodimlarini kasbiy tayyorlash, bilim, ko‘nikma, malakalarini oshirish, dunyoqarashini rivojlantirishni ta‘minlashga qaratilgan tadbirlar mexanizmlari hamda ularning aholi, jamoatchilik bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish, shaxslararo muloqotchanlik, stressga bardoshlilik, fikrga ko‘ndirish, hujjatlar bilan ishlash salohiyatini oshirish ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Bugungi kunda mahallalarni yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika, viloyat va hududiy kengashlar faoliyati xususida hamda mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish, mahalla “ettiligi” faoliyati, milliy birlashishga undovchi mexanizmlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Mahalla, mahallabay, mahalla yettiligi, kompetensiya, samaradorlik, milliy qadriyatlar, ijtimoiy barqarorlik, milliy birlashish.

**Каримов Бобир,**

и.о. профессора кафедры «Социология и психология управления»  
Академии государственного управления при  
Президенте Республики Узбекистан,  
доктор социологических наук  
bkarimov73@umail.uz

### КОМПЕТЕНЦИИ ДЛЯ РЕАЛИЗАЦИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ОСНОВЕ СИСТЕМЫ РАБОТЫ «МАХАЛЛАБАЙ»

#### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается уникальная система, применяемая в Узбекистане – махалля и система работы «Махаллабай», многотысячелетняя ее история, этапы развития. Раскрыто, как на основе этой системы, реализуется человеческий потенциал, управляется и развивается институт махалли, повышаются управленческие компетенции государственных служащих. На научной основе рассмотрены механизмы деятельности, направленные на обеспечение

профессиональной подготовки, повышение знаний, навыков, квалификации и мировоззрения работников махалли, а также развитие их компетенций в работе с населением и общественностью. Они строятся на межличностном общении, стрессоустойчивости, убеждении, ведении документооборота и др. В ней рассмотрена деятельность республиканского, областных и территориальных советов по дальнейшему развитию и поддержке махаллей, а также процессы дальнейшего укрепления системы работы махалли, а также механизмы содействия национальному единству.

**Ключевые слова:** махалля, махаллябай, махаллинская семерка, компетентность, эффективность, национальные ценности, социальная стабильность, национальное единство.

**Karimov Bobir,**

Professor of the Department of Sociology and Psychology  
of Management Academy of Public Administration at  
President of the Republic of Uzbekistan,  
Doctor of Sociology  
bkarimov73@umail.uz

## COMPETENCES FOR THE REALIZATION OF HUMAN POTENTIAL BASED ON THE WORK SYSTEM «MAHALLABAY»

### ABSTRACT

The article discusses a unique system used in Uzbekistan – mahalla and the “Mahallabai” work system, the many-thousand-year history of mahalla, stages of development, as well as how to realize human potential, manage and develop mahalla, and improve the management competencies of civil servants on the basis of this system. On a scientific basis, the mechanisms of activity aimed at ensuring professional training, improving the knowledge, skills, qualifications and worldview of mahalla employees, as well as developing their competencies in working with the population and the public, interpersonal communication, stress resistance, persuasion, and document management were considered. Today, the activities of the republican, regional and territorial councils for the further development and support of mahallas, as well as further strengthening the mahalla work system, the activities of the mahalla “sevens”, and mechanisms for promoting national unity were discussed.

**Key words:** mahalla, mahallabai, mahalla “sevens”, competence, efficiency, national values, social stability, national unity.

### KIRISH

Mahalla azal-azaldan insonlararo munosabatlarni tashkillashtiruvchi, ijtimoiy kapitalni rivojlantiruvchi, uyg'unlashtiruvchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, inson salohiyatini rivojlantirishga asoslardan biri sifatida xizmat qiluvchi maskan bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Mustaqillik davrida uning roli yanada kengayib, maqomi oshirildi. Bugun Mahalla – xalq bilan mamlakat o'rtasidagi ishonch ko'prigi sifatida xizmat qiladigan, insonni jamiyatning bir qismi bo'lishga o'rgatadigan, uni bag'rikenglik va xalqparvarlik ruhida tarbiyalaydigan makondir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning bevosita tashabbuslari bilan “Mahalla yettiligi”<sup>[1]</sup> tashkil qilinib, ularning faoliyati takomillashtirilib borilmoqda.

### METODOLOGIYA

O'zbekistonda bugungi kunda o'n mingga yaqin mahallalar bo'lib, ularning o'ziga xos nomlari bizga tarixdan so'zlaydi. Chunki, ularda xalqimizning uzoq tarixi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, madaniy merosi aks etadi.

“Mahalla” atamasi arabcha bo'lib, “o'rin-joy” degan ma'noni anglatgan. U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan. Adabiyotlarda Mahallalarning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Macalan, Narshaxiy o'zining “Buxoro tarixi” asarida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari bir qancha Mahallalar bo'lganini [2] qayd etib o'tgan. Alisher Navoiy o'zining “Hayrat ulabrur” asarida Mahallani “mahalla shahar ichidagi shaharcha”dir,

deb ta'riflaydi, Hirot shahrida yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo'lgan Mahallalardan tashkil topganligini aytib o'tadi.

Mahallalar Amir Temur davrida ham ravnaq topgan. Mahallalar fuqarolarning kasbkori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, qandolatchilik, naqshkorlik, misgarlik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi va boshqalar. Mahalla qadimda mahalliy hokimiyatning o'ziga xos bir shakli, ko'rinishi tarzida faoliyat ko'rsatgan. Mahallani boshqarish jamoatchilik asosida olib borilib, o'zining yozilmagan ichki tartib qoidalariga ega bo'lib, u hamma uchun birdek qonuniy hisoblangan.

### ASOSIY QISM

Mahallalarga e'tibor davlatimiz rahbari tomonidan kun tartibiga qo'yilgan. Sharqqa xos madaniyatni o'zida jamlagan mahallalarimiz nufuzini oshirish, mahalla orqali yurtimiz rivoji uchun xizmat qilish burchimizdir. Prezidentimiz o'z nutqlarida "Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo'shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas'uliyat degani. Mahallalar – davlatimizning eng katta zamini", deb ta'kidlaganlari ham bejizga emas, - chunki mahallalar tom ma'noda xalqning dardini yengil qiluvchi, ularning ishonchli makoniga aylanmoqda"[3], deb aytgan edilar.

Shuningdek, davlatimiz rahbari "Zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o'zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo'limiz – mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro'yini qancha ko'tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo'ladi" [4], deb ta'kidlagan edilar.

Jumladan, 2023 yil 26 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish, mahalla "ettiligi" faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda bir qator vazifalar belgilangan edi. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash uchun mahalla boshqaruv tizimini takomillashtirish va mahalla "ettiligi" faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha Prezidentimizning "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari to'g'risida"[5]gi farmoniga ko'ra, mahalla obodligini ta'minlash, "Obod mahalla", "Obod ko'cha", "Obod xonadon" mezonlarini joriy etishda aholining faol ishtiroki va mas'uliyatini oshirish choralarini ko'rish, mahallalardagi muammolarning o'z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo'naltirish, mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag'al oilalarga ajratilayotgan byudjet mablag'lari va boshqa mablag'larning maqsadli va manzilli yo'naltirilishini ta'minlash, mahallalarning moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, ularga ajratiladigan mablag'larni markazlashgan tarzda taqsimlash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, mahalla mas'ullarining malakasini oshirish, ularda zamonaviy boshqaruv ko'nikmalari shakllanishiga ko'maklashish vazifalari belgilab berilganligi ta'kidlandi.

Mahallalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etilishi, respublika kengashiga – Bosh vazir, hududiy kengashlarga esa hokimlar rahbarlik qilishi, kengashlar "mahalla yettiligi" qo'ygan masalalarga yechim topishi, moliyaviy manbalarini hal qilib berishi alohida qayd etildi. Albatta, bu kabi aniq qo'yilgan maqsad va vazifalar o'z natijasini beradi. Chunki, xalqimiz ishonadigan va suyanadigan eng birinchi maskan bu – mahalladir. Shu boisdan ham xalqimizga yanada ko'proq xizmat qilish uchun mahalla xodimlari soni endilikda "beshlik" emas, "ettilik" tizimiga o'tkazildi. Ta'kidlash lozimki, yangidan tashkil qilinayotgan bu tizimdagi ijtimoiy xodimning vazifasi og'ir ahvolga tushib qolgan yoki shu ahvolga tushish ehtimoli bo'lgan fuqarolar hamda oilalar bilan ishlaydi, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko'rsatishni, ko'maklashishni tashkil qiladi.

Soliq inspektori esa soliq bilan bog'liq bo'lgan mahalla ishlarini yuritishda faol bo'ladi, tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko'rsatish kabi ishlar bilan shug'ullanadi.

Ko'rib turganimizdek, qabul qilinayotgan qaror yoki farmonlarning tub mohiyati xalqimizning yaxshi sharoitlarda yashashi, har bir insonning rivojlanishi uchun foydali bo'lishga qaratilgan. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o'zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo'limiz – mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro'yini qancha ko'tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo'ladi". Bu ishlarga esa barchamiz mas'ulmiz degan edilar.

Tadqiqotchi F.A.Ixtiyarov "Inson kapitalini keys metodi asosida rivojlantirishning sotsiologik xususiyatlari" nomli dissertatsiyasida "Ma'lumki, inson kapitali undagi bilim, hunar, mahorat, muloqot kabi jihatlarga yetarli miqdorda investitsiya qilish va uning natijasida hosil bo'ladigan boylikni samarali tatbiq qilish jarayonlari bilan bog'liq. Muayyan kasblar, bilim sohalari, ilm, hunarmandchilik, tijorat, xizmatlar hamda muloqot turlarining birortasi yoki bir nechitasi bo'yicha yetuklik darajasiga chiqqanlik inson kapitali deyiladi" [6], degan fikrlarni bayon qiladi.

Mahalla yettiligi – O'zbekistonda mahallalarda amalga oshiriladigan ishlarning muhim yo'nalishlarini belgilab beruvchi tizim bo'lib, u amiyatda mahallaning o'rni va funksiyalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu yettilik quyidagi asosiy yo'nalishlardan iborat:

1. **Mahallada ijtimoiy yordamni tashkil etish.** Kam ta'minlangan, yordamga muhtoj oilalar va fuqarolarga ko'mak ko'rsatish. Ular uchun ijtimoiy himoya va ko'mak tizimini samarali tashkil qilish.

2. **Xotin-qizlar va yoshlar masalalari.** Mahallada xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bilim olishlari va bandligini ta'minlashga yordam berish.

3. **Oilani mustahkamlash va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish.** Oilaviy ajrimlarning oldini olish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar orqali oilalarni mustahkamlash.

4. **Mahalla xavfsizligini ta'minlash.** Jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va muammolarni birgalikda hal qilish.

5. **Atrof-muhit va obodonlashtirish.** Mahallada ekologik muhitni yaxshilash, hududni obodonlashtirish, tozalik va tartibni saqlash ishlarini tashkil etish.

6. **Bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirish.** Mahallada aholi bandligini ta'minlashga ko'maklashish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish.

7. **Fuqarolar yig'ini faoliyatini takomillashtirish.** Mahalla faoliyatini tartibga solish, fuqarolar yig'inini kuchaytirish, mahalla raislari va faol fuqarolarni qo'llab-quvvatlash [7].

Bu tizim mahallalarda fuqarolarning turmush darajasini oshirish, ahil va barqaror jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **Mahalla yettiligi faoliyat samaradorligini ilmiy-amaliy oshirish.**

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida mahalla faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mahalla yettiligi faoliyat samaradorligini oshirishda zamonaviy taraqqiyotning ilg'or innovatsion texnologiyalarini hayotga tatbiq qilishni, bu xususda tinimsiz izlanishlar, tadqiqotlar olib borishni taqozo qilmoqda. Bugungi kunda Mahalla tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning kompetensiyalarini uzluksiz oshirib borish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining jiddiy muammolaridan biri – aholining milliy qadriyatlar va an'analariga asoslangan ma'naviy hayoti, dunyoqarashining shakllanishi bilan bog'liq. Ma'naviy qashshoqlikni bartaraf etishning anchayin murakkab vazifa ekanligini e'tiborga olib, yillar davomida ma'naviy-ma'rifiy, axloq-odob va tarbiya yo'nalishida islohotlar olib borib, ta'lim-tarbiya va ma'rifat asosida amalga oshirishning muhimligi va mumkinligi ko'rsatib beriladi. Bu borada Mahalla yettiligi faoliyatini mazkur masalaga yo'naltirish lozim.

Shu boisdan mahalla xodimlarini har tomonlama o'qitish bilan bir qatorda ularning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirishga oid ma'naviy-tarbiyaviy, odob-axloq mezonlari

mexanizmlarini yaratishga e'tibor qaratiladi. Loyiha davomida milliy qadriyatlar, an'analar bilan bog'liq ta'lim-tarbiya bosqichlariga amal qilingan holda, ta'lim jarayonlarini uzluksizligini ta'minlab, video-audio materiallar, internet kontentlari, trening dasturlari tayyorlanadi.

Mahalla xodimlarini kasbiy tayyorlash, bilim, ko'nikma, malakalarini oshirish, dunyoqarashini rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar mexanizmlari ishlab chiqiladi. Ularning aholi, jamoatchilik bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish, shaxslararo muloqotchanlik, stressga bardoshlilik, fikrga ko'ndirish, hujjatlar bilan ishlash salohiyatini oshirish maqsadga muvofiq.

### **Mahalla yettiligining uyushmagan yoshlar bilan ishlash yo'nalishida:**

Bugungi kunda har qanday jamiyatda uyushmagan yoshlar masalasi eng asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, hozirgi dunyoda globallasuv jarayonlarining shiddat bilan kechayotgani avvalo mafkuraviy kurashlarda aks etib, ular bilan kirib kelayotgan g'oyalar yoshlarning ongi va shuuriga keskin ta'sir etayotgani ko'rinmoqda. Bu esa eng avvalo ish bilan band bo'lmagan yoshlar orasida ko'plab kuzatiladi. Bu kabi uyushmagan yoshlar mamlakatimiz hayotiga ham o'rin tutib kelishmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda yuz bergan qator ijtimoiy o'zgarishlar, ayniqsa, so'z erkinligini berilishi axborot almashinuvining ortishiga olib keldi.

Bugungi kunda milliy metalitetimizga begona bo'lgan, turli zararli g'oya va mafkuralar hayotimizga ijtimoiy tarmoqlarda axborot oqimining keskin miqdorda ortishi natijasida kirib kelmoqda. Ularga qarshi turish uchun, avvalo, yoshlarni ma'naviy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni chuqur o'rganish hamda unga qarshi tura oladigan, uning o'rnini to'ldir oladigan ma'naviy-ma'rifiy kontentlarni ko'paytirish, yosh avlodning ma'anviy-mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga xizmat qiluvchi, milliy ma'naviyatni shakllantiruvchi va uni ulug'lovchi manbalarni ko'rsatish, ularni yoshlar ongiga singdirish mexanizmlarini yaratishni davrning o'zi talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarorida "Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

1. Har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada (keyingi o'rinlarda – mahalla) yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilsin.

2. Quyidagilar mahalladagi yoshlar yetakchisining (keyingi o'rinlarda – Yetakchi) asosiy vazifalari etib belgilansin:

"Yoshlar balansi"ni shakllantirish, yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni "Yoshlar daftari" va "Yoshlar portali" elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;

mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashish", [8] vazifalari ilgari surildi.

Hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda har qanday ma'lumotni ijtimoiy tarmoqlardan topish imkoniyati ortib borgani holda, ularni tahlil va talqin qilish ham ayrim shaxslarni, gohida ma'lum bir guruhlarini manfaatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin. Yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanish jarayonini izdan chiqarishga qaratilgan turli odobsizlik, axloqsizlik, mantiqsizlik g'oyalarini o'z ichiga olgan adabiyotlar, videomateriallar tinimsiz ravishda yot kuchlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilmoqda.

Shu boisdan, O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy soha oldiga qo‘yiladigan muhim vazifa – uyushmagan yoshlar orasida ma’naviy dunyoqarashda bo‘shliqning paydo bo‘lishi, ularning ongida salbiy qarashlarning ortib borishi, turli jinoiy elementlarga moyillik hislarining ortishiga olib keluvchi omillarni o‘rganish, ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’sirini tahlil qilish hamda ularning oldini olish uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Uyushmagan yoshlar orasida axloqsizlik, “ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlaridan saqlash, turli ijtimoiy illatlar, diniy fundamentalizm va radikalizm ta’sirlaridan saqlashga, milliy qadriyatlarga yot ta’sirlardan asrashga oid tarbiyaviy ta’lim mexanizmlarini yaratiladi. Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazish, uyushgan va uyushmagan yoshlarni Vatan ravnaqi, millat va davlat rivoji, jamiyat taraqqiyoti uchun jonkuyar millat farzandi bo‘lib yetishishiga e’tibor qaratiladi.

**Mahalla yettiligining xorijdagi yoshlar bilan ishlash yo‘nalishida:** Xorijda ishlayotgan, ta’lim olayotgan yoshlarimizning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularga Vatan, millat, milliy an’analarimizga oid qadriyatlarni ulug‘lash xislatlarini singdirish, qaerda yashash va ishlashlaridan tashqari ona Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat va sadoqatni shakllantirishga xizmat qiluvchi dasturlarni ishlab chiqish, targ‘ibot va tashviqot ishlarida foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 15-sentyabrdagi PQ-4829-son qarorida “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini amalga oshirish va yanada takomillashtirish, tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi ulushini tubdan oshirish, respublikadan tashqariga ishlash uchun ketayotgan fuqarolarning huquqlari himoya qilinishini ta’minlash, xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarining bandligini ta’minlash choralari ko‘rish” belgilangan [9].

Xorijda yashayotgan, o‘qiyotgan va xizmat qilayotgan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga ma’naviy dastak berishga xizmat qiladigan ma’naviy-tarbiyaviy mexanizmlarni yaratish va hayotga tatbiq etish muhim. Xorijdagi yoshlar o‘rtasida doimiy so‘rovnomalar o‘tkazish, ularning muammolarini aniqlash, dunyoqarashlarini o‘rganish, ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar ilmiy-nazariy izlanishlar orqali tahlil etiladi.

Xorijdagi yoshlar bilan ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini olib borishga qaratilgan internet kontentlari, Vatan va millatni ulug‘lovchi, shiorlarga qaratilgan o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlash, ijtimoiy roliklar olish ishlarini amalga oshiriladi. Xorijdagi yoshlarni ma’naviy qarashlarini shakllantirishga mo‘ljallangan, onlayn shaklda faoliyat yuritadigan elektron platforma yaratishga asos solinadi.

## XULOSA

Bugungi kunda Resublika “Mahalla” uyushmasi tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shunga qaramasdan sohada bir qancha mavjud muammolar o‘zining yechimini kutmoqda. Jumladan, vazirlik va idoralar tomonidan “mahallabay” ish tashkil qilish uchun mahallaga biriktirilgan mas’ul xodimlar bo‘yicha respublika yagona reestri tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Vazirlik va idoralar tomonidan mahallaga biriktirilgan mas’ul xodimlarning “mahallabay” ishlarining huquqiy-me’yoriy hujjatlari, ish tashkil etish va samaradorlik tizimi hamda faoliyat tartiboti ishlab chiqish lozim. “Mahalladan – vazirlikkacha” tamoyili asosida joriy qilingan ijtimoiy liftning faoliyat tartiboti ishlab chiqish bu boradagi ishlar samaradorligini ta’minlashda imkon yaratib bergan bo‘lar edi. Mahallada faoliyat yuritadigan bakalavr va magistr darajasidagi oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

## Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida mahallabay ishlash tizimiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi. 26.09.2023-yil.
2. Narshaxiy M. «Buxoro tarixi». – Toshkent, 1966.
3. Mirziyoev Sh. Mahalla – ulug‘ qadriyatlarimizning beshigi. <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/2122>.

4. Mirziyoev Sh. Mahalla – ulug‘ qadriyatlarimizning beshigi. <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/2122>.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-209-sonli farmoni.

6. Ixtiyarov F.A. “Inson kapitalini keys metodi asosida rivojlantirishning sotsiologik xususiyatlari”. 22.00.02 – “Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi sotsiologiyasi” ixtisosligidan Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2024. – B 48.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) bo‘yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 18-maydagi 292-son qarori. <https://lex.uz/en/docs/6931871>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 15-sentyabrdagi PQ-4829-son qarori.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000